



Digital transformation and corruption: new challenges of a new era

Shakhrizoda ABDUMAJITOVA¹

University of World Economy and Diplomacy

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2025

Received in revised form

15 July 2025

Accepted 15 July 2025

Available online

25 August 2025

Keywords:

corruption,
corrupt crimes,
digitization,
digital transformation,
e-government,
technology,
cyber security,
fighting corruption in the
context of digital
transformation.

ABSTRACT

This article analyzes issues of corruption, the concept of anti-corruption, digital transformation, anti-corruption in the context of digital transformation, digital transformation today and its connection with corruption. In particular, a comprehensive analysis of the anti-corruption potential of digital transformation processes and the new risks that may arise in these processes has been carried out. Our research work analyzes the emergence of corrupt schemes through aspects of digital transformation that can cause more complex and hidden forms of corruption – including cyber security vulnerabilities, unauthorized access to data, and discrepancies in digital literacy.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss7/S-pp167-172>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Raqamli transformatsiya va korrupsiya: yangi davrning yangi sinovlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

korrupsiya,
korrupsiyaviy jinoyatlar,
raqamlashtirish,
raqamli transformatsiya,
elektron hukumat,
texnologiyalar,
kiberxavfsizlik,
raqamli transformatsiya
sharoitida korrupsiyaga
qarshi kurashish.

Mazkur maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi, raqamli transformatsiya, raqamli transformatsiya sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish, bugungi kunda raqamli transformatsiya hamda uning korrupsiya bilan bog'liqligi masalalari tahlil qilingan. Xususan, raqamli transformatsiya jarayonlarining korrupsiyaga qarshi kurashish salohiyati va bu jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi xavflar kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot ishimizda raqamli transformatsiyaning korrupsiyaning yanada murakkab va yashirin shakllarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan

¹ PhD student, University of World Economy and Diplomacy. E-mail: shshukhratovna007@gmail.com

tomonlari, jumladan, kiberxavfsizlik zaifliklari, ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish va raqamli savodxonlikdagi tafovutlar orqali korrupsion sxemalarning paydo bo'lishi tahlil qilingan.

Цифровая трансформация и коррупция: новые испытания новой эры

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коррупция,
коррупционные
преступления,
цифровизация,
цифровая трансформация,
электронное
правительство,
технологии,
кибербезопасность,
борьба с коррупцией в
контексте цифровой
трансформации.

В статье анализируются вопросы коррупции и противодействия ей, а также цифровая трансформация и её влияние на антикоррупционные практики. Проведён комплексный анализ антикоррупционного потенциала процессов цифровой трансформации и связанных с ними новых рисков. В исследовании рассмотрены аспекты цифровой трансформации, способные приводить к более сложным и скрытым формам коррупции, включая появление коррупционных схем из-за уязвимостей кибербезопасности, несанкционированного доступа к данным и различий в уровне цифровой грамотности.

KIRISH

Korrupsiya – jamiyatimiz farovonligi va taraqqiyotiga ulkan to'siq bo'layotgan eng xavfli illatlardan biri hisoblanib, uning salbiy oqibati jamiyatning har bir bo'g'inida aks etib turadi. Dunyoda turli millat va elatlar borki, ularning buguni va ertasiga bolta uruvchi illat aynan korrupsiyadir. Uzoq yillar mobaynida ushbu muammoga yetarlicha e'tibor bermaslik, muhokama qilmaslik oqibatida korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat bizning, balki butun dunyo hamjamiyati e'tibor berishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" [1].

Elektron hukumat, ochiq ma'lumotlar platformalari, blokcheyn va sun'iy intellekt kabi zamonaviy raqamli yechimlar korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ular jarayonlarni avtomatlashtirishga, qaror qabul qilishda oraliq aloqalarni kamaytirishga, inson omillari darajasini pasaytirishga va jamoatchilik nazoratini kengaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hayotimizni o'zgartirish bilan birga zamonaviy davlatlarning axborot resurslari va texnologiyalaridan jinoyatchilikka qarshi vosita sifatida kengroq foydalanishga yo'naltirmoqda. Xususan, mazkur tadqiqotning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashda raqamli transformatsiya hamda uning zamonaviy imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, samaradorlikni oshirish bilan bog'liq takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu yo'nalishda yozilgan mavjud izlanishlarni tahlil qilish chog'ida bilishimiz mumkinki, bugungi kundagi zamonaviy va ilmiy yondashuvlar korrupsiyaga qarshi kurashda raqamlashtirishning rolini ko'proq o'rganmoqda. O'zbek ilmiy olamida

korruptsiyaga qarshi kurashish mavzusi muhim o'rinni egallab kelmoqda. Xususan, B. Boboerov va S. Boboerovning jamoaviy monografiyasida "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi kontekstida korruptsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasining mazmun-mohiyati berilgan bo'lib, unda aynan raqamli transformatsiya ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi keltirib o'tilgan [2]. B. Bektemirov esa O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi siyosatining huquqiy asoslarini tahlil qilib, raqamli nazorat mexanizmlarini institutsional mustahkamlash muhimligiga e'tibor qaratmoqda [3].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, raqamli transformatsiya va korruptsiya mavzusiga tobora qiziqish ortib borayotganligini hamda chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan mavzular sirasiga kirayotganligini anglashimiz mumkin.

Avvalo, korruptsiyaga qarshi kurashda raqamli transformatsiya nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, bu davlat boshqaruviga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda korruptsiyaviy holatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan davlat xizmatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Bu tushunchani aniqroq ifodalaydigan bo'lsak, quyidagilarga to'xtalib o'tishimiz zarur:

- inson omilini minimallashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirish;
- mansabdor shaxslar faoliyatini monitoring qilish;
- mansabdor shaxslarning daromadlari va xarajatlarini nazoratga olish.

Bunda *birinchidan*, fuqarolar hamda mansabdor shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish ularning tez va samarali usulda o'ziga kerakli bo'lgan xizmat turidan foydalanish imkonini beradi, ya'ni bu orqali korruptsiya holatlari kuzatilishining oldi olinadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ikkinchidan, mansabdor shaxslarning o'z xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilmagan holda vijdonan yondashishlarini ta'minlash uchun doimiy monitoring qilinishi ham fuqarolar, ham davlat uchun samarali usul bo'ladi,

Uchinchidan, mansabdor shaxslarning har biri qanday daromadga ega bo'layotganligi hamda ushbu daromadlarga qay tarzda ega bo'layotganlik faktlari bilan uzluksiz ravishda tanishib turish va nazoratga olish ham korruptsion jinoyatlar sodir etilishini oldini oluvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Raqamli transformatsiya allaqachon jamiyatimiz rivojining ajralmas bo'lagiga aylanib ulgurgan. Raqamli transformatsiya deganda faqat texnik vositalar va ular bilan bog'liq yangilanish holatini emas, balki insonlarning bir-biri bilan munosabatlarini yangidan shakllantiradigan, fikrlash tarzini, qaror qabul qilish asoslarini yanada rivojlantiradigan omilni tushunishimiz mumkin.

Xususan, S.Xauzer sun'iy intellekt va raqamli algoritmlardan foydalanish boshqaruv tizimida korruptsiya xavfini avtomatik ravishda aniqlashga yordam berishini ta'kidlaydi [4]. Raqamli transformatsiya nafaqat korruptsiyani kamaytirishga, balki barcha jarayonlarning ochiq va shaffofligi orqali davlat tuzilmalariga ishonchni oshirishga yordam beradi. K.C. Евсиков va A.A. Сувопов o'z izlanishlari davomida raqamli transformatsiya normativ, tashkiliy va texnologik qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi degan xulosaga kelishgan [5].

Ma'lumki, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash masalasi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanib, uning oldini olishning aniq tizimi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qonun qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-sonli qarori va

2017–2018-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Davlat dasturida begilab qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlash va fikr almashish maqsadida barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxona va muassasalarda seminarlar va ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashga oid ustuvor huquqiy asos yaratilganligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Milliy xavfsizlik konsepsiyasi”da korrupsiyaning milliy xavfsizlik uchun eng katta tahdidlardan biri sifatida keltirilganligi;

- O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyulda BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi konvensiyasiga qo'shilganligi;

- 2019-yil 27-mayda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmonida ham maxsus komissiya zimmasiga huquqni muhofaza qilish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini, shu jumladan, umum e'tirof etilgan xalqaro standartlar va chet el ijobiy tajribasini inobatga olgan holda ushbu faoliyatni tashkil etish va mazkur yo'nalishdagi funksiyalarini optimallashtirishda yagona yondashuvlarni joriy etish orqali tubdan takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berilganligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-martda qabul qilingan “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida organ tuzish taklifi kiritilganligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni qabul qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etilganligi;

- Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 829-son qarori qabul qilinganligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-son Farmoni qabul qilinganligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-son qarori qabul qilinganligi [6].

Zamonaviy raqamli texnologiyalar korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim omiliga aylanib ulgurganligi bilan bir qatorda samarali, ochiq, shaffof hamda o'z ahamiyatiga ega bo'lgan davlat boshqaruvini shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Tahlil davomida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan raqamli texnologiyalardan foydalanishning eng muhim yo'nalishlari aniqlandi. Ulardan eng birinchisi elektron hukumat bo'lib, Булгаков В., Г. Булгакова, Е. В. ва Акимов В.С. tomonidan ta'kidlanganidek, ushbu mexanizm juda ko'p boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon berishi bilan bir qatorda fuqarolarning mansabdor shaxslar

bilan o'zaro aloqada bo'lmasdan aynan raqamli texnologiyalar orqali ma'lumot va jamoat xizmatlaridan foydalanishini ta'minlaydi [7]. Bu esa, o'z navbatida, norasmiy shartnomalarning oldini olishga, xizmatlar tezligini oshirishga hamda ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Xususan, fuqarolarda bevosita korrupsion holatlar yuzaga kelgan taqdirda ular haqida online xabar yetkazish hamda ogohlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi va shu orqali jamoatchilik nazorati tizimi mustahkamlanadi.

Shuningdek, ochiq ma'lumotlar instituti korrupsiya darajasini pasaytirishda muhim ahamiyatga ega. A.M. Игнатова ning ta'kidlashicha, ochiq ma'lumotlar shaffoflik, fuqarolarni nazorat qilish va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish tamoyillariga asoslangan davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi modeli uchun asos yaratadi [8]. Demak, fuqarolar bu holatda ma'lumotlarni tahlil qilishlari, korrupsiya belgilarini aniqlashlari va ularni bartaraf etish yuzasidan o'z takliflarini berishlari mumkin. Raqamli texnologiyalar korrupsiyaga qarshi siyosatning subyektlari, ya'ni davlat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda ayniqsa o'z samarasini ko'rsatadi, ya'ni online murojaat qilish hamda ushbu murojaatlarni online tarzda qabul qilish o'zaro ta'sir mexanizmlarini yaratishga imkon beradi. Natijada amaldorlarga bo'lgan bosimni oshiradi, davlat faoliyatining barcha jabhalarida ochiqlik hamda shaffoflikni ta'minlab beradi.

Binobarin, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu borada huquqiy asos yaratib bergan bo'lsa-da, amaliyotda hali qator tizimli muammolar mavjud. Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli kechishi, eng avvalo, inson kapitaliga, texnologik infratuzilmaga, institutsional yondashuvga va kiberxavfsizlik choralarining samaradorligiga bog'liq. Shu munosabat bilan quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:

- raqamli transformatsiya – bu kompleks va bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, uni amalga oshirishda faqat texnologiyalar emas, balki strategik yondashuv, ijtimoiy tayyorgarlik va institutsional islohotlar muhim rol o'ynaydi.

- raqamli texnologiyalar qo'llanilishi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va davlat boshqaruvi sohalarida samaradorlikni sezilarli oshiradi, lekin bu natijalarga erishish uchun raqamli savodxonlikni yuksaltirish, xodimlar malakasini oshirish va fuqarolarni raqamli muhitga integratsiyalash lozim.

- O'zbekiston tajribasida, ayniqsa, online davlat xizmatlari, raqamli to'lov tizimlari va ta'lim platformalari bo'yicha muhim yutuqlarga erishilgan, biroq ularni yanada rivojlantirish uchun texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish, ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash zarur. Maqola asosida quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

- nafaqat shaharlar, balki qishloq va viloyatlarni ham doimiy hamda tezkor, uzluksiz internet tarmog'i bilan ta'minlash;

- raqamli xizmatlardan foydalanishni kengaytirish, barcha aholi uchun, ya'ni kam daromadli oilalar va qishloqda yashaydigan aholi uchun ham raqamli xizmatlarni yo'lga qo'yish;

- inson kapitalini rivojlantirishga e'tibor qaratish;

- har bir foydalanuvchining xavfsizligini va maxfiyligini ta'minlash, ma'lumotlar bazalarining himoyasini barqarorlashtirish.

Binobarin, bugungi kunda jahon iqtisodiyoti jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda hech qaysi bir sohani raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot, jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarni joriy etish, fuqarolar va davlat apparati harakatlarini avtomatlashtirish orqali korrupsiya darajasini pasaytirish, murojaatlar va shikoyatlarning taqdim etilish tartibini soddalashtirish, jamoatchilik nazoratining shaffoflik mexanizmlarini ishlab chiqish hamda hokimiyat organlarining javobgarligini oshirish masalalarini takomillashtirish orqali ushbu illatga qarshi munosib kurashish mumkin. Biz raqamli transformatsiya sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashar ekanmiz, adolatli jamiyat barpo etish bilan birga aholining huquqiy ongi o'sishiga ham hissa qo'shgan bo'lamiz. Zero, korrupsiya bor mamlakatda rivojlanish, taraqqiyot bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis.
2. Boboyorov B. N., Boboyorov S. Yangi O'zbekiston: korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi. –Toshkent: GOLDEN BRAIN, 2025. –96 b.
3. Bektemirov A. B. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari. –Toshkent: GOLDEN BRAIN, 2024. –104 b.
4. Hauser C. Digitalisation, artificial intelligence, and the fight against corruption//Organizational Corruption, Crime and Covid-19.–2025.–Vol. 3.–P.88-94.
5. Евсиков К. С., Суворов А. А. Цифровая трансформация противодействия коррупции // Право и юридические науки. –2022. –No 4. –С. 112–118.
6. <http://lex.uz>.
7. Булгакова Е. В., Булгаков В. Г., Акимов В. С. Механизмы электронного государства по противодействию коррупции // Правовая информатика. –2014. –No 4. –С. 53–58.
8. Игнатова А. М. Открытые данные как новый способ взаимодействия государства и общества // Политические и юридические науки, культурология и социология. –2015. –No 3. –С. 44–50.